Tashqi savdo aylanmasi

2025-yil yanvar–oktabr oylari uchun dastlabki ma’lumot

I. Tashqi savdo aylanmasi
II. Eksport hajmi
III. Import hajmi
IV. Uslubiy ma’lumotlar
V. Aloqador boshqa havolalar

I. Tashqi savdo aylanmasi

2025-yil yanvar–oktabr oylarida respublikaning tashqi savdo aylanmasi (TSA) 66,5 mlrd AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning yanvar-oktabriga nisbatan 11 752,3 mln AQSH dollariga yoki 21,5 % ga ko‘paydi.

Tashqi savdo aylanmasi
yanvar–oktabr, mln AQSH dollari



TSAda eksport hajmi 29 005,9 mln AQSH dollariga (2024-yilning yanvar–oktabr oylariga nisbatan 27,8 %ga o‘sdi) va import hajmi 37 533,4 mln AQSH dollariga (16,9 % o‘sish) yetdi. Hisobot davrida tashqi savdo balansi 8 527,5 mln AQSH dollari miqdorida manfiy saldo bilan shakllandi.

O‘zbekiston Respublikasining yirik hamkor davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi

yanvar–oktabr, mln AQSH dollari

	2023-y.	2024-y.	2025-y.
Xitoy	10 804,3	10 237,0	13 110,3
Rossiya Federatsiyasi	7 930,0	9 656,7	10 602,4
Qozog‘iston	3 592,4	3 423,6	3 932,0
Turkiya	2 614,2	2 461,3	2 432,1
Koreya Respublikasi	1 878,5	1 660,3	1 442,1
Afg‘oniston	693,5	886,3	1 316,9
Fransiya	773,3	990,4	1 205,5
Hindiston	609,4	789,7	1 089,2
Germaniya	876,7	973,3	1 056,4
BAA	515,1	526,1	1 046,2
Turkmaniston	939,1	950,4	876,8
AQSH	501,4	740,5	809,2
Qirg‘iz Respublikasi	814,1	674,4	787,3
Belarus	508,0	581,4	785,6
Tojikiston	605,6	564,5	654,3
Eron	418,4	405,0	455,8
Pokiston	319,6	343,1	427,6
Italiya	417,7	369,1	390,3
Niderlandiya	193,2	215,0	334,5
Yaponiya	189,6	336,3	326,8

O‘zbekiston jahonning 210 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. O‘zbekiston tashqi savdo aylanmasining yuqori ulushi Xitoy (19,7 %), Rossiya (15,9 %), Qozog‘iston (5,9 %), Turkiya (3,7 %) va Koreya Respublikasi (2,2 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 73,3 % ni tashkil etib, unda asosan sanoat tovarlari (10,9 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,2 %), kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (6,0 %) va har xil tayyor mahsulotlar (4,9 %) hissasi yuqori bo‘ldi.

II. Eksport hajmi

yanvar–oktabr

Tarkibi	mln AQSH dollari		O‘sish sur’ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami eksport	**22 692,9**	**29 005,9**	**110,9**	**127,8**	**100,0**	**100,0**
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1 709,5	2 392,9	117,3	140,0	7,5	8,2
Ichimliklar va tamaki	114,5	160,2	114,6	139,9	0,5	0,6
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	260,5	241,1	102,9	92,6	1,1	0,8
Mineral yoqilg‘i, moylash materiallari va shunga o‘xshash materiallar	1 127,7	1 242,3	146,8	110,2	5,0	4,3
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	32,6	47,7	3,3 b.	146,1	0,1	0,2
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 434,2	1 738,5	132,7	121,2	6,3	6,0
Sanoat tovarlari	3 572,0	3 166,7	105,7	88,7	15,7	10,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	983,3	893,1	89,7	90,8	4,3	3,1
Turli xil tayyor buyumlar	925,0	1 419,7	92,5	153,5	4,1	4,9
Boshqa tovarlar	6 696,5	9 949,6	97,0	148,6	29,5	34,3
shu jumladan: nomonetar oltin	*6 626,6*	*9 900,1*	*96,5*	*149,4*	*29,2*	*34,1*
Xizmatlar	5 837,1	7 754,1	132,1	132,8	25,7	26,7

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Eksport tarkibi (XSST-2008) (oylik)

O‘zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida eksporti hajmi

2025-yil yanvar–oktabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Eksport hajmi (mamlakatlar kesimida, oylik)

2025-yilning yanvar–oktabr oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo‘yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya (12,6 %), Xitoy (5,6 %), Qozog‘iston (4,1 %), Afg‘oniston (4,1 %), Turkiya (3,2 %), Fransiya (2,7 %), BAA (2,1 %), Qirg‘iz Respublikasi (1,7 %), Tojikiston (1,6 %) va Pokiston (1,1 %) kabi davlatlar bo‘ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 38,8 % ni tashkil etdi.

XSST bo‘yicha eksport tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar–oktabr

XSST kodi	XSST bo‘limi nomi	mln AQSH dollari	O‘sish sur’ati, %
0	**Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar**	**2 392,9**	**140,0**
05	Sabzavotlar va mevalar	1 787,7	142,6
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	452,5	146,8
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	60,2	164,4
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	26,1	127,1
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	16,1	78,1
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	15,1	113,4
01	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	13,0	33,0
00	Tirik hayvonlar	10,8	161,5
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	8,0	91,7
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	3,3	187,6
1	**Ichimliklar va tamaki**	**160,2**	**139,9**
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	84,5	120,3
11	Ichimliklar	75,7	171,2
2	**Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari**	**241,1**	**92,6**
26	To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	68,0	66,8
29	Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	60,3	100,9
28	Metall rudalari va metall parchalari	35,7	129,6
27	O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	30,3	122,4
25	Qog‘oz massasi va makulatura	23,1	86,6
22	Yog‘li urug‘lar va yog‘li mevalar	20,6	122,8
24	Probka va yog‘och-taxtalar	1,6	117,9
23	Tabiiy kauchuk	1,6	85,7
3	**Mineral yoqilg‘i, moylash materiallari va shunga o‘xshash materiallar**	**1 242,3**	**110,2**
34	Tabiiy yoki sun’iy gaz	568,2	105,1
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	541,3	107,7
35	Elektr toki	129,7	158,7
32	Ko‘mir, koks va briketlar	3,1	107,1
4	**Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar**	**47,7**	**146,1**
42	O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	47,6	146,4
43	Hayvonlar va o‘simliklar moylari va yog‘lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar	0,1	108,0
5	**Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar**	**1 738,5**	**121,2**
52	Noorganik kimyo moddalari	992,3	123,7
56	O‘g‘itlar	384,6	136,3
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	178,3	88,7
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	63,7	146,9
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	37,0	126,8
53	Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	27,5	130,2

XSST kodi	XSST bo‘limi nomi	mln AQSH dollari	O‘sish sur’ati, %
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	23,2	136,9
51	Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	16,1	64,2
58	Organik kimyo moddalari	15,7	124,0
6	**Sanoat tovarlari**	**3 166,7**	**88,7**
65	To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	1 273,3	75,9
68	Rangli metallar	1 192,5	91,2
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	245,9	135,7
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar	179,9	138,9
67	Cho‘yan va po‘lat	158,3	97,1
64	Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	42,7	102,4
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna	31,0	85,3
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	23,5	130,7
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	19,5	122,7
7	**Mashinalar va transport asbob-uskunalari**	**893,1**	**90,8**
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham) shu jumladan:	245,8	76,5
784	*avtomobillarning qismlari va anjomlari*	*210,0*	*92,7*
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	229,7	134,7
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	132,0	73,3
79	Boshqa transport uskunalari	124,7	97,7
74	Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari	63,2	100,8
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	52,4	75,9
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	35,3	83,3
75	Kanselyariya mashinalari va ma’lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	6,2	92,3
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	3,8	147,6
8	**Turli xil tayyor mahsulotlar**	**1 419,7**	**153,5**
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	845,6	116,6
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	509,9	3,7 b.
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	17,9	122,2
85	Poyabzal	17,5	101,3
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel	16,5	113,1
83	Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	6,0	68,2
81	Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash konteynerlar	5,7	100,1
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	0,6	63,5
9	**Boshqa tovarlar**	**9 949,6**	**148,6**
97	Oltin, monetar bo‘lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	9 900,1	149,4
93	Maxsus operatsiyalar va turlari bo‘yicha tasniflanmagan tovarlar	49,5	70,8

2025-yil yanvar–oktabr oylarida 1 821,8 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 7,3 % yoki 124,0 ming tonnaga oshdi.

Meva va sabzavotlar eksporti
yanvar–oktabr

	2024-yil		2025-yil	
	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari	Miqdori, ming tonna	Mln AQSH dollari
Jami	**1 697,8**	**1 234,5**	**1 821,8**	**1 724,3**
mevalar va rezavorlar	**429,0**	**456,2**	**523,2**	**580,3**
uzum	173,9	147,2	198,1	198,3
quritilgan uzum	33,3	49,5	84,1	109,5
shaftoli	103,5	96,9	111,6	105,2
gilos	34,5	73,4	34,3	72,5
quritilgan olxo‘ri	19,1	26,9	33,8	47,9
o‘rik	64,8	62,2	61,3	46,9
sabzavotlar	**635,7**	**169,4**	**524,8**	**182,9**
piyoz	325,1	63,2	297,4	84,2
karam	165,2	44,5	129,3	51,0
pomidor	41,3	36,5	38,2	30,1
sabzi	83,9	17,4	42,7	8,8
bodring	5,6	4,2	7,2	4,9
rediska	14,7	3,6	10,1	3,8
tarvuz va qovun	153,9	36,5	231,5	57,1
yeryong‘oq va yong‘oqlar	16,1	39,4	21,8	55,7
mosh	61,9	48,4	86,2	86,5
boshqa	401,2	484,5	434,3	761,9

2025-yil yanvar–oktabr oylarida 1 724,3 mln AQSH dollariga teng meva va sabzavotlar eksport qilindi. Bu ko‘rsatkich 2024-yilning mos davriga nisbatan 39,7 % ga o‘sdi va jami eksportdagi ulushi 5,9 % ni tashkil etdi.

To‘qimachilik mahsulotlari eksporti ulushi



2025-yil yanvar–oktabr oylari yakuni bo‘yicha 2 053,3 mln AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 7,1 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 15,5 % ga kamaydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to‘qimachilik mahsulotlari (51,4 %), ip kalava (28,5 %) asosiy ulushni egallagan.

Xizmatlar eksporti

2025-yil yanvar-oktabr oylari, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Xizmatlar eksporti (xizmatlar turi bo‘yicha, oylik)

2025-yil yanvar–oktabr oylarida xizmatlar eksporti hajmi 7 754,1 mln AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 26,7 % ini tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 32,8 % ga o‘sdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi safarlar (53,1 %), transport (30,9 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (8,1 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (3,2 %) hissasiga to‘g‘ri kelgan.

III. Import hajmi

Ushbu davrga kelib import hajmi 37 533,4 mln AQSH dollariga yetdi va 2024-yilning mos davriga nisbatan 16,9 % ga o‘sdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (34,0 %), sanoat tovarlari (15,8 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar (12,3 %) hisobiga to‘g‘ri keldi.

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko‘ra, 2025-yilning yanvar–oktabr oyida import qilingan tovarlar hajmi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4 448,9 mln AQSH dollariga ko‘paydi va 33 466,7 mln AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 4 066,7 mln AQSH dollariga yetdi.

O‘zbekiston Respublikasining importi tarkibi
yanvar–oktabr

XSST tarkibi	mln AQSH dollari		O‘sish sur’ati, %		Umumiy hajmga nisbatan, %	
	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.	2024-y.	2025-y.
Jami import	**32 094,1**	**37 533,4**	**105,2**	**116,9**	**100,0**	**100,0**
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	3 006,0	3 546,1	105,6	118,0	9,4	9,4
Ichimliklar va tamaki	197,9	282,5	128,0	142,8	0,6	0,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari	916,3	1 237,6	100,2	135,1	2,9	3,3
Mineral yoqilg‘i, moylash materiallari va shunga o‘xshash materiallar	3 233,1	3 011,8	156,0	93,2	10,1	8,0
Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar	288,7	422,5	84,2	146,4	0,9	1,1
Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar	3 887,8	4 627,2	96,5	119,0	12,1	12,3
Sanoat tovarlari	4 970,6	5 939,5	96,9	119,5	15,5	15,8
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	11 277,2	12 763,6	96,3	113,2	35,1	34,0
Turli xil tayyor buyumlar	1 194,0	1 405,3	100,5	117,7	3,7	3,7
Boshqa tovarlar	46,3	230,5	64,2	5,0 b.	0,1	0,6
Xizmatlar	3 076,3	4 066,7	150,2	132,2	9,6	10,8

Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Import tarkibi (XSST-2008) (oylik)

O‘zbekiston Respublikasining davlatlar kesimida importi hajmi
2025-yil yanvar–oktabr, mln AQSH dollari



2025-yil yanvar–oktabr oylarida O‘zbekiston Respublikasi 177 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yirik hamkor davlatlar, jumladan, Xitoy (30,6 %), Rossiya (18,5 %), Qozog‘iston (7,3 %), Turkiya (4,0 %), Koreya Respublikasi (3,7 %), Germaniya (2,5 %) va Hindiston (2,5 %) jami importning 2/3 qismini tashkil etdi.

XSST bo‘yicha import tovarlar tarkibi
2025-yil yanvar–oktabr

XSST kodi	XSST bo‘limi nomi	mln AQSH dollari	O‘sish sur’ati, %
0	**Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar**	**3 546,1**	**118,0**
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	816,1	108,6
01	Go‘sht va go‘sht mahsulotlari	681,2	170,2
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	452,0	86,0
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	394,8	116,6
05	Sabzavotlar va mevalar	372,0	118,7
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	266,1	142,4
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	231,1	98,9
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	190,5	146,4
00	Tirik hayvonlar	103,2	108,1
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo‘lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar	39,2	125,1
1	**Ichimliklar va tamaki**	**282,5**	**142,8**
11	Ichimliklar	182,6	127,0
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	99,9	184,7
2	**Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg‘idan tashqari**	**1 237,6**	**135,1**
24	Probka va yog‘och-taxtalar	519,7	137,9
28	Metall rudalari va metall parchalari	293,9	120,8
27	O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	96,6	137,8
26	To‘qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	80,2	197,6
22	Yog‘li urug‘lar va yog‘li mevalar	76,1	132,9
29	Hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	75,7	144,1
25	Qog‘oz massasi va makulatura	52,3	113,9
23	Tabiiy kauchuk	42,7	145,5
21	Ishlov berilmagan terilar, teri xomashyosi va mo‘yna	0,4	104,8
3	**Mineral yoqilg‘i, moylash materiallari va shunga o‘xshash materiallar**	**3 011,8**	**93,2**
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar	1 630,9	98,3
334	*Benzin (avtomobillar uchun)*	*1 281,7*	*105,8*
34	Tabiiy yoki sun’iy gaz	1 122,5	84,0
32	Ko‘mir, koks va briketlar	169,8	125,1
35	Elektr toki	88,6	86,3
4	**Hayvon va o‘simliklar moylari (yog‘lari), yog‘lar va mumlar**	**422,5**	**146,4**
42	O‘simlik moylari va yog‘lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	376,4	153,3
43	Hayvonlar va o‘simliklarning qayta ishlangan moylari va yog‘lari, hayvonlar va o‘simliklardan kelib chiqqan mumlar	45,2	107,3
41	Hayvonlarning yog‘lari	1,0	86,3
5	**Kimyoviy vositalar va shunga o‘xshash mahsulotlar**	**4 627,2**	**119,0**
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 655,6	116,3

XSST kodi	XSST bo‘limi nomi	mln AQSH dollari	O‘sish sur’ati, %
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	879,0	133,6
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	610,0	111,5
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	472,5	109,9
51	Organik kimyo moddalari	311,2	133,8
52	Noorganik kimyo moddalari	273,3	119,3
53	Bo‘yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo‘yoqlar	259,2	112,6
58	Birlamchi shaklda bo‘lmagan plastmassalar	101,0	117,4
56	O‘g‘itlar	65,5	127,3
6	**Sanoat tovarlari**	**5 939,5**	**119,5**
67	Cho‘yan va po‘lat	2 622,7	119,6
69	Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	883,1	132,0
65	To‘qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o‘xshash mahsulotlar	494,2	103,2
62	Rezina buyumlari	476,4	132,3
66	Qog‘oz, karton va qog‘oz massasi, qog‘oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	378,7	112,7
64	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	374,4	114,2
63	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	367,1	126,0
68	Rangli metallar	340,7	109,1
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo‘yna	2,2	133,9
7	**Mashinalar va transport asbob-uskunalari**	**12 763,6**	**113,2**
78	Avtomobillar (havo yostiqlarida harakatlanuvchilar ham)	2 965,4	110,4
781	*asosan yo‘lovchilarni tashish uchun mo‘ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari*	*921,2*	*82,3*
784	*avtomobillarning qismlari va anjomlari*	*1 465,2*	*139,2*
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo‘ljallangan mashinalar	2 583,1	122,4
74	Sanoat uchun maxsus bo‘lmagan mashinalar va ularning detallari	2 040,2	123,2
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 926,9	116,6
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	1 220,1	124,1
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	851,5	98,4
79	Boshqa transport uskunalari	602,6	89,4
	shu jumladan: samolyotlar va boshqa mexanik quvvatga ega uchish apparatlari (vertolyotlardan tashqari)	434,6	86,8
75	Kanselyariya mashinalari va ma’lumotlarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	370,1	91,0
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	203,6	84,2
8	**Turli xil tayyor mahsulotlar**	**1 405,3**	**117,7**
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	468,4	121,8
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	411,1	110,4
81	Blokli binolar, suv o‘tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	171,3	130,0
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o‘xshash tikilgan mebel	161,0	129,5
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	115,2	106,0
85	Poyabzal	36,8	107,0
83	Yo‘l anjomlari, sumkalar va shunga o‘xshash konteynerlar	21,4	112,7
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	20,0	105,6
9	**Boshqa tovarlar**	**230,5**	**5,0 b.**
97	Oltin, monetar bo‘lmagan (rudalari va konsentratlaridan tashqari)	230,5	5,0 b.

2025-yilning yanvar–oktabr oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 4 066,7 mln AQSH dollarini yoki jami import hajmining 10,8 % ini tashkil etdi va o‘tgan yilga nisbatan 32,2 % ga oshdi.

Xizmatlar importi tarkibi

2025-yil yanvar–oktabr, mln AQSH dollari



Mavzuga doir ko‘rsatkichlar:
Xizmatlar importi (xizmatlar turi bo‘yicha, oylik)

Xizmatlar importi tarkibida asosiy ulush safarlar (51,3 %), transport xizmatlari (20,1 %), telekommunikatsiya, kompyuter va axborot xizmatlari (10,9 %) va boshqa tadbirkorlik bilan bog‘liq xizmatlar (6,6 %) hamda boshqa xizmatlar (11,1 %) hissasiga to‘g‘ri keldi.

IV. Uslubiy ma’lumotlar

Tovarlar tashqi savdosi statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash imkonini beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi ma’lumotlari asosida shakllantiriladi. Bunda, Bojxona qo‘mitasining bojxona yuk deklaratsiyasi ma’lumotlari hamda Milliy statistika qo‘mitasining rezidentdan norezidentga o‘tuvchi, davlat chegarasini kesib o‘tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan belgilangan turdagi tovarlar bo‘yicha statistika kuzatuvlari tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma’lumotlar manbasi hisoblanadi. Xizmatlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. Aloqador boshqa havolalar

Tashqi savdo aylanmasi hajmi (yillik)
Tashqi savdo aylanmasining o‘sish sur’ati (yillik)
Tashqi savdo aylanmasi hajmi (mamlakatlar kesimida, yillik)
Tashqi savdo aylanmasi o‘sish sur’ati (mamlakatlar kesimida, yillik)
Eksport hajmi (hududlar kesimida, yillik)
Eksport hajmi (mamlakatlar kesimida, oylik)
Import hajmi (yillik)
Importning o‘sish sur’ati (yillik)

Chop etishga mas’ul:
Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi boshqarmasi

Manzil: *100170, Toshkent, Mustaqillik shoh ko‘chasi, 63.*
Elektron pochta: *info@stat.uz*
Tel.: 71-203-80-00 (1180, 1181)